
“HOKIM VA YOSHLAR” UCHRASHUVIDA: Yuz nafardan ortiq yoshlarga amaliy yordam berildi

Bugun shahrimizdagi "Nuroniylar maskani"da "Hokim va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi. Unda yoshlar yetakchilari, turli tanlovlar va musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan iqtidorli yoshlar hamda 30 yoshgacha ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolar ishtirok etishdi.

Tadbirni shahar hokimi Vosiljon Nazarov ochib, Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklar haqida ta'kidlab o'tdi. Shundan so'ng, yoshlar bilan samimiy muloqot o'tkazildi.

Yoshlar yetakchilarining o'rganishlari davomida joriy yil boshidan 385 nafar yoshlar daftarga kiritilgan bo'lib, 278 nafarlariga belgilangan tartibda amaliy yordamlar ko'rsatilgan edi.

Qolgan 107 nafar yoshlarga ham mavjud muammolari bo'yicha "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan amaliy yordamlar ko'rsatildi. Joriy yil davomida yoshlar uchun 2 mlrd. 300 mln. so'm mablag' sarf etildi.

Bugun 13 nafar yoshlarga mehnat qurollari topshirildi, 60 nafarlarining kontrakt to'lovlari to'lab berildi. 23 nafar yoshlarga safarbarlik chaqiruvi rezervi badali va ilm-fan yo'nalishidagi to'garak pullari to'landi. Shuningdek, yana o'ndan ortiq yoshlarga turli yo'nalishlar bo'yicha amaliy yordamlar berildi.

"Hokim va yoshlar" uchrashuviga yig'ilgan yoshlar berilayotgan e'tibordan mamnun bo'lishdi. Ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik uchun Davlatimiz rahbari va mas'ullarga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

2023-04-08 18:04:24